

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 157 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansaxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIIY IJTIMOIIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O'RNI.....	128
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
О'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR

Shaxinabonu Choriyeva

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm industriyasida raqamli transformatsiya sharoitida shakllanayotgan innovatsion biznes-modellar tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt, Big Data, blockchain, VR/AR texnologiyalari va mobil ilovalarning turizm sohasida qo'llanishi o'rganilgan. Innovatsion modellar an'anaviy yondashuvlarga nisbatan samaradorligi, moslashuvchanligi va global raqobatbardoshligini oshirish omillari sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari turizm raqamli transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmat sifatini yaxshilash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy drayveri ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Turizm, raqamli transformatsiya, innovatsion biznes-modellar, sun'iy intellekt, Big Data, blockchain, VR/AR, mobil ilovalar, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article examines innovative business models emerging in the tourism industry under conditions of digital transformation. The study explores the application of artificial intelligence, Big Data, blockchain, VR/AR technologies, and mobile applications in tourism. Innovative models are analyzed as drivers of efficiency, flexibility, and global competitiveness compared to traditional approaches. The findings demonstrate that digital transformation in tourism is a key driver for enhancing economic efficiency, improving service quality, and ensuring sustainable development.

Key words: Tourism, digital transformation, innovative business models, artificial intelligence, Big Data, blockchain, VR/AR, mobile applications, sustainable development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инновационные бизнес-модели, формирующиеся в условиях цифровой трансформации туристической индустрии. Исследуется применение технологий искусственного интеллекта, больших данных, блокчейна, VR/AR и мобильных приложений в сфере туризма. Инновационные модели анализируются как факторы повышения эффективности, гибкости и глобальной конкурентоспособности по сравнению с традиционными подходами. Результаты исследования показали, что цифровая трансформация в туризме является ключевым драйвером повышения экономической эффективности, качества услуг и устойчивого развития.

Ключевые слова: Туризм, цифровая трансформация, инновационные бизнес-модели, искусственный интеллект, большие данные, блокчейн, VR/AR, мобильные приложения, устойчивое развитие.

KIRISH

So'nggi yillarda globallashuv, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarishi turizm industriyasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiyotning yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biri, balki raqamli transformatsiyaning eng faol maydonlaridan biri sifatida ham ko'rilmogda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasida innovatsion yondashuvlar iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm biznesi klassik xizmat ko'rsatish modelidan zamonaviy, moslashuvchan va texnologiyalarga asoslangan biznes-modellarga o'tmoqda. Masalan, onlayn bron qilish tizimlari, elektron to'lovlar, sun'iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan xizmatlar, blockchain texnologiyasi yordamida yaratilayotgan smart-kontraktlar turizm yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), mobil ilovalar ham turistlarga xizmat ko'rsatishda samaradorlikni oshirmoqda.

Innovatsion biznes-modellarning joriy etilishi turizm kompaniyalariga global bozor talablariga tezkor javob qaytarish, mijozlar bilan barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish, shuningdek, pandemiya kabi global inqiroz sharoitida ham faoliyatini davom ettirish imkonini bermogda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda raqamli texnologiyalarga asoslangan turizm xizmatlariga talabning keskin ortgani kuzatilmogda. Shu bois, mazkur maqolada turizm industriyasida raqamli transformatsiya jarayonida shakllanayotgan innovatsion biznes-modellar, ularning nazariy asoslari va amaliy qo'llanish mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida raqamli transformatsiya va innovatsion biznes-modellar masalasi so'nggi yillarda nafaqat xorijiy, balki mahalliy tadqiqotchilar diqqat markazida ham keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni uch asosiy blokka ajratish mumkin: raqamli transformatsiya nazariyasi, innovatsion biznes-modellar, hamda turizm industriyasida amaliy qo'llanish tajribalari. Jahon ilmiy adabiyotida turizm raqamli transformatsiya masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, Buhalis va Law (2008) o'z tadqiqotlarida e-Tourism konsepsiyasini asoslab, turizm internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) joriy etilishi turistlar xatti-harakatini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlagan. Porter va Heppelmann (2014) esa raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan raqobatbardosh biznes-modellarni o'rgangan va ularni "aqlli xizmatlar" tushunchasi orqali ifodalagan.

Shuningdek, Gretzel va hamkorlari (2015) "smart tourism" konsepsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, bunda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va IoT texnologiyalari turizm xizmatlarida shaxsiylashtirishni kuchaytirishi qayd etilgan. Blockchain va smart-kontraktlarning turizm qo'llanilishi bo'yicha Tapscott (2016) tadqiqotlarida bu texnologiyalar turistik xizmatlarda ishonchlilik, shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlashi mumkinligi ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi davrida turizmning raqamli xizmatlarga o'tishini tahlil qilgan Sigala (2020) pandemiya raqamli innovatsiyalarni tezlashtiruvchi asosiy omilga aylanganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlari ham so'nggi yillarda turizm innovatsion yondashuvlarni chuqur o'rganishni boshlashgan. Masalan, A. Karimov (2020) o'z tadqiqotlarida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron turizm xizmatlarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib, turizm AKTni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ilmiy asoslagan. Shuningdek, Sh. Xolmirzayev (2021) tomonidan olib borilgan izlanishlarda O'zbekistonda smart-turizm konsepsiyasining huquqiy, tashkiliy va texnologik jihatlari o'rganilgan. Unga ko'ra, mobil ilovalar, onlayn bron tizimlari va virtual ekskursiyalarni rivojlantirish turistlar oqimini ko'paytirish bilan birga xizmat sifati oshirishini ta'minlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan D. Sodiqov (2022) esa madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish masalasini o'rganib, 3D modellash va AR/VR texnologiyalarining turizm sohasida qo'llanishi nafaqat xizmatlarni modernizatsiya qilish, balki milliy madaniyatni global miqyosda targ'ib qilish imkonini berishini ta'kidlagan. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar turizm raqamli transformatsiyaning nazariy asoslari, texnologik imkoniyatlari va global tajribasini ko'proq tahlil qilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotchilar ko'proq O'zbekiston sharoitida raqamli turizm joriy etishning amaliy masalalariga e'tibor qaratishgan. Har ikkala yo'nalish ham ko'rsatadiki, turizm innovatsion biznes-modellarni yaratish raqamli texnologiyalarsiz mumkin emas va ular kelajakda turizm industriyasining barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm industriyasida raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion biznes-modellarning shakllanishi va rivojlanishini ilmiy jihatdan o'rganish uchun bir qator metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi, qiyosiy tahlil metodi, statistik tahlil metodi, sotsiologik metodlar (so'rov va intervyu), kontent-tahlil metodi, internet saytlar, mobil ilovalar va raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari tahlil qilindi. Turizm innovatsion texnologiyalarni targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlari ilmiy jihatdan qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, turizm industriyasi raqamli transformatsiya sharoitida tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy biznes-modellar o'zining samaradorligini yo'qotib, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi biznes yondashuvlarga yo'l bermoqda.

Birinchidan, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Yevropa davlatlari, AQSh va Osiyo mamlakatlarida turizm "smart tourism ecosystem" konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Bu konsepsiya sun'iy intellekt, IoT, big data va blockchain texnologiyalarini o'zida mujassamlashtirib, turistlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda (Buhalis, Gretzel, 2015).

Ikkinchidan, mahalliy tajriba tahlili O'zbekistonda ham turizm raqamli xizmatlarga ehtiyojning ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Davlat turizm qo'mitasi tomonidan elektron bron qilish tizimlari, "E-tourism" platformalari, QR-kod asosidagi virtual gidlar kabi innovatsion xizmatlar joriy etilmoqda.

Uchinchidan, COVID-19 pandemiyasi davrida turizm raqamli xizmatlarning tezkor rivojlanishi kuzatildi. Xalqaro tadqiqotlar (Sigala, 2020) ko'rsatishicha, pandemiya "onlayn turizm xizmatlari"ni nafaqat vaqtinchalik zarurat, balki istiqbolli biznes modeli sifatida shakllantirdi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham raqamli xizmatlarni kengaytirish pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklashning eng muhim omillaridan biri bo'ldi.



Zamonaviy global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm industriyasi bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Turizm xizmatlarining an'anaviy shakllari asta-sekin o'z o'rnini innovatsion biznes-modellarga bo'shatib bermoqda. Bu jarayon xizmat ko'rsatishda samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va turistlar ehtiyojini yanada chuqurroq qondirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Avvalo, onlayn bron qilish tizimlari va elektron platformalar turizm sohasida asosiy innovatsion yondashuvlardan biridir. Mehmonxona, aviachiptalar, ekskursiyalar va boshqa xizmatlarni yagona platforma orqali bron qilish imkoniyati turistlar uchun katta qulaylik yaratmoqda. Masalan, Booking.com, Expedia yoki AirBnB kabi platformalar dunyo bo'ylab millionlab turistlarga xizmat ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, mobil ilovalar turizm sohasida eng muhim vositalardan biriga aylandi. Ular turistlarga real vaqt rejimida marshrut tuzish, xarita va gidlik xizmatidan foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa turistlarga mustaqil sayohat qilishda erkinlik beradi va ularning turizm tajribasini yanada boyitadi.

Uchinchi innovatsion yo'nalish bu – sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalariga asoslangan modellar. AI yordamida turistlarning xohish va odatlari o'rganilib, ularga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar beriladi. Big Data esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizm oqimlari dinamikasini oldindan prognoz qilish va bozor talablariga tezkor moslashishga yordam beradi.

Shuningdek, blockchain texnologiyalari va smart-kontraktlar turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular to'lov tizimlarida shaffoflikni ta'minlab, vositachilarsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki turistlarning ishonchini ham oshiradi. Bugungi kunda virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari ham turizm katta ahamiyat kasb etmoqda. Virtual ekskursiyalar, 3D formatdagi sayohatlar va AR asosida madaniy meros obyektlarini jonlantirish turistlar uchun mutlaqo yangi tajribalar yaratmoqda. Bundan tashqari, barqaror turizm (sustainable tourism) modellari ham raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq. Yashil texnologiyalarni joriy qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va chiqindilarni kamaytirish orqali turizm sohasi ekologik mas'uliyatli rivojlanishga qadam qo'ymoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm industriyasida shakllanayotgan innovatsion biznes-modellar turizm xizmatlarini butunlay yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular turistlarga tezkor, xavfsiz va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi, kompaniyalar uchun esa xarajatlarni kamaytirib, global bozor raqobatida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Shunday qilib, innovatsion biznes-modellar turizmni nafaqat iqtisodiy o'sish, balki barqaror rivojlanishning ham muhim omiliga aylantirmoqda.

1-jadval. An'anaviy va innovatsion biznes-modellar taqqoslanishi

Asosiy mezonlar	An'anaviy biznes-modellar	Innovatsion biznes-modellar
Xizmat ko'rsatish usuli	Ofis orqali, yuzma-yuz, qo'lda hujjatlar bilan ishlash	Onlayn bron qilish, mobil ilovalar, raqamli platformalar orqali
Mijozlar bilan aloqa	Cheklangan, telefon yoki shaxsiy uchrashuv orqali	24/7 onlayn chat-botlar, AI asosida shaxsiylashtirilgan xizmatlar
Marketing	An'anaviy reklama (plakat, TV, radio)	Raqamli marketing (SEO, SMM, influencer marketing)
To'lov tizimi	Naqd yoki bank kartasi orqali	Elektron to'lov tizimlari, kriptovalyuta, smart-kontraktlar
Moslashuvchanlik	Sekin, bozor talablariga kech moslashadi	Tezkor, big data va analitika asosida qaror qabul qiladi
Xarajatlar	Yuqori (ko'p xodim, ofis xarajatlari)	Nisbatan past (avtomatlashtirish, onlayn xizmatlar)
Hududiy qamrov	Asosan mahalliy yoki mintaqaviy	Global, cheksiz mijozlar auditoriyasi

Xizmat ko'rsatish usuli: An'anaviy modelda xizmatlar ofis orqali yoki yuzma-yuz tarzda ko'rsatilgan bo'lsa, raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar onlayn platformalar, mobil ilovalar va raqamli tizimlar orqali taklif qilinmoqda. Bu esa vaqt va masofadan qat'i nazar, turistlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Mijozlar bilan aloqa: An'anaviy modelda aloqa vositalari cheklangan bo'lsa (telefon, uchrashuv), innovatsion modelda 24/7 xizmat ko'rsata oladigan chat-botlar va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar mavjud. Bu turist ehtiyojini



real vaqt rejimida qondirishga yordam beradi. Marketing: An'anaviy reklama ko'proq mass-media orqali olib borilgan bo'lsa, innovatsion yondashuvda raqamli marketing (SEO, SMM, influencer marketing) orqali aniq auditoriyaga tezkor yetib borish mumkin. Bu usul samaradorlikni oshiradi. To'lov tizimi: An'anaviy modelda to'lovlar asosan naqd pul yoki kartalar orqali amalga oshirilgan. Innovatsion modelda esa elektron to'lov tizimlari, hatto kriptovalyuta va smart-kontraktlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, bu turistlarga xavfsizlik va qulaylik yaratadi. Moslashuvchanlik: An'anaviy tizimlar sekin ishlaydi va bozor talabiga moslashishi qiyin. Innovatsion tizimlarda esa big data va analitik usullar asosida qarorlar tez qabul qilinadi. Xarajatlar: An'anaviy modelda ofis, xodimlar va boshqa tashkiliy xarajatlar ko'p bo'lsa, innovatsion modelda avtomatlashtirish hisobiga xarajatlar kamayadi. Hududiy qamrov: An'anaviy biznes-modellar hududiy cheklangan, innovatsion modellar esa global miqyosda ishlash imkoniyatini beradi. Shu tariqa innovatsion modellar turistlar ehtiyojini tezroq va sifatliroq qondirish, xizmatlarni shaxsiylashtirish va global raqobatda ustunlikka erishishga xizmat qiladi.

2-jadval. An'anaviy va innovatsion biznes-modellarning ijobiy va salbiy tomonlari


Model turi	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
An'anaviy biznes-modellar	- Shaxsiy aloqa kuchli, mijoz ishonchini oshiradi. - Mahalliy bozor uchun qulay. - Yillar davomida shakllangan tajriba mavjud.	- Raqamli xizmatlarga nisbatan sekin. - Hududiy chegaralangan. - Xarajatlar yuqori. - Yosh avlod ehtiyojlariga javob bermaydi.
Innovatsion biznes-modellar	- Global bozorda ishlash imkoniyati. - Xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi. - Shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatadi. - Turistlarga qulay va tezkor xizmat.	- IT infratuzilmasiga yuqori talab. - Kiberxavfsizlik muammolari. - Qonunchilik cheklovlari mavjud bo'lishi mumkin. - An'anaviy kompaniyalar uchun transformatsiya qiyin.

An'anaviy modellarning ijobiy tomoni shundaki, ular turistlar bilan bevosita shaxsiy aloqani kuchaytiradi, mijoz ishonchini oshiradi va yillar davomida shakllangan tajribaga ega. Mahalliy bozorda, ayniqsa, an'anaviy xizmatlarga talab mavjud. Biroq ular sekin ishlaydi, hududiy chegaralangan va xarajatlari yuqori. Yosh avlod esa ko'proq onlayn xizmatlardan foydalanishni afzal ko'radi. Innovatsion modellar esa global bozorda xizmat ko'rsatish imkonini beradi, xarajatlarni kamaytiradi, samaradorlikni oshiradi va turistlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatadi. Masalan, AI yordamida turist uchun maxsus marshrut tuzish yoki mobil ilova orqali xizmatlarni boshqarish mumkin. Biroq bu modelda ham ayrim kamchiliklar mavjud: IT infratuzilmasi yuqori darajada bo'lishi shart, kiberxavfsizlik xavflari yuqori, qonunchilikdagi cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, an'anaviy kompaniyalar uchun transformatsiya qilish qiyin bo'lishi ham kuzatiladi. Shunday qilib, har ikki modelning ham o'ziga xos ustunlik va kamchiliklari mavjud. Lekin bugungi global raqobat sharoitida innovatsion model ustunroq bo'lib, turizm industriyasini yangi bosqichga olib chiqadi.

Natijada innovatsion biznes-modellar turizmga barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlar joriy etilgan kompaniyalar an'anaviy xizmatlarga tayanadigan kompaniyalarga nisbatan ko'proq turistlarni jalb qilmoqda va daromad hajmini oshirmoqda. Turizm raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi xizmat sifatini oshiradi. Sun'iy intellekt, VR/AR, blockchain va mobil ilovalar turistlar uchun qulaylik yaratadi, xizmatlarni shaxsiylashtiradi va ishonchlilikni kuchaytiradi. Mahalliy sharoitda raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. O'zbekistonda elektron turizm infratuzilmasi jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, xalqaro standartlarga moslashishda ayrim cheklovlar mavjud. Bu esa davlat siyosatini takomillashtirish, xususiylashtirish, xususiylashtirish qo'llab-quvvatlash va kadrlar salohiyatini oshirishni talab qiladi. Pandemiya keyingi davrda raqamli biznes-modellar strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Onlayn xizmatlar, masofaviy marketing va virtual ekskursiyalar pandemiya davrida samarali bo'lgan va kelgusida ham turizm sohasida muhim o'rin egallashi aniqlandi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari turizm industriyasida raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion biznes-modellarni shakllantirish nafaqat zamon talabi, balki iqtisodiy samaradorlik, xizmat sifati va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omili ekanligini ko'rsatmoqda.



Raqamli transformatsiya sharoitida turizmدا innovatsion biznes-model



1-sxema. Raqamli transformatsiya sharoitida turizmда innovatsion model

Zamonaviy turizm industriyasi tezkor raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayon natijasida an'anaviy biznes-modellar asta-sekin innovatsion biznes-modellarga o'rin bo'shatmoqda. Innovatsion modelning shakllanishida sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), blockchain texnologiyalari, kengaytirilgan va virtual reallik (VR/AR) tizimlari, shuningdek, mobil ilovalar va elektron platformalarning o'rni beqiyosdir. Sun'iy intellekt turistlarning xatti-harakati va afzalliklarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Masalan, turistning oldingi sayohatlari asosida unga yangi marshrutlar yoki mehmonxonalarni tavsiya qilish mumkin. Big Data esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizm oqimlari dinamikasini oldindan prognozlash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Blockchain va smart-kontraktlar turizm xizmatlarida xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlab, to'lov tizimlarida ishonchlilikni oshiradi. VR/AR texnologiyalari orqali virtual ekskursiyalar, onlayn sayohatlar tashkil etilishi turistlar uchun yangi tajribalar yaratadi. Mobil ilovalar va e-platformalar esa turistlarga 24/7 xizmat ko'rsatish, bron qilish, to'lovlarni amalga oshirish va interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyalar uyg'unlashganda, innovatsion biznes-modellar shakllanadi. Bu modellar an'anaviy turizm xizmatlariga nisbatan ko'proq afzalliklarga ega bo'lib, ularning asosiy ustunligi – moslashuvchanlik, tezkorlik, shaxsiylashtirish va global raqobatbardoshlikdir. Shuningdek, ular xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Innovatsion biznes-modellar turizm industriyasida bir qator natijalarni yuzaga keltiradi. Xizmatlar sifati oshadi. Turistlarga individual xizmatlar taklif etiladi. Global miqyosda raqobatbardoshlik kuchayadi. Barqaror rivojlanishga erishiladi. Iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada ortadi. Xulosa qilib aytganda, turizm industriyasida innovatsion biznes-modellar raqamli transformatsiya sharoitida yangi rivojlanish bosqichini belgilab bermoqda. Bu model xizmatlarni shaxsiylashtirish, global auditoriyaga chiqish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali turizmni zamonaviy iqtisodiyotning eng dinamik va innovatsion tarmoqlaridan biriga aylantirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida turizm industriyasi tubdan yangilanib, innovatsion biznes-modellar sohaning asosiy rivojlanish yo'nalishiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt, Big Data, blockchain, VR/AR texnologiyalari hamda mobil ilovalar va elektron platformalar turizm xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar integratsiyasi xizmatlarni avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va global bozorga tezkor kirib borishni ta'minlovchi innovatsion biznes-modellarni shakllantirmoqda. Innovatsion biznes-modellar an'anaviy tizimlarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega: ular xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, turistlarga qulaylik yaratadi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlab, uni pandemiya kabi global inqiroz sharoitida ham moslashuvchan ishlashga imkon beradi. Shunday qilib, turizm industriyasida innovatsion biznes-modellarni joriy etish nafaqat zamon talabi, balki iqtisodiy samaradorlik, xizmat sifati va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omilidir. Bu jarayon turizmni raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylantirib, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Buhalis, D., & Law, R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet—The state of eTourism research. *Tourism Management*, 29(4), 609–623. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2008.01.005>
2. Buhalis, D., & Gretzel, U. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188. <https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8>
3. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Journal of Hospitality and Tourism Technology*, 6(3), 211–228. <https://doi.org/10.1108/JHTT-08-2015-0032>
4. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How smart, connected products are transforming competition. *Harvard Business Review*, 92(11), 64–88.
5. Sigala, M. (2020). Tourism and COVID-19: Impacts and implications for advancing and resetting industry and research. *Journal of Business Research*, 117, 312–321. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2020.06.015>
6. Tapscott, D. (2016). *Blockchain revolution: How the technology behind bitcoin and other cryptocurrencies is changing the world*. Penguin.
7. Xiang, Z., Du, Q., Ma, Y., & Fan, W. (2017). A comparative analysis of major online review platforms: Implications for social media analytics in hospitality and tourism. *Tourism Management*, 58, 51–65. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2016.10.001>
8. Li, X., & Wang, Y. (2021). Big data and artificial intelligence in tourism and hospitality: A systematic review. *Journal of Hospitality Marketing & Management*, 30(8), 873–895. <https://doi.org/10.1080/19368623.2021.1934920>
9. Mariani, M., Borghi, M., & Cappa, F. (2021). Online review helpfulness and firms' financial performance: An empirical study in a service industry. *International Journal of Hospitality Management*, 94, 102853. <https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2020.102853>
10. Guttentag, D. (2010). Virtual reality: Applications and implications for tourism. *Tourism Management*, 31(5), 637–651. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.07.003>
11. Karimov, A. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron turizm xizmatlarini rivojlantirish yo'llari. *O'zbekiston iqtisodiy axborotlari jurnali*, 4(2), 45–52.
12. Xolmirzayev, Sh. (2021). Smart-turizm konsepsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari. *Turizmدا innovatsiyalar ilmiy jurnali*, 3(1), 27–34.
13. Sodiqov, D. (2022). Madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va turizmدا qo'llash istiqbollari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 5(2), 67–75.
14. Abduvaliyeva, M. (2021). O'zbekistonda turizmدا innovatsion rivojlanishning istiqbollari. *Milliy iqtisodiyot va menejment jurnali*, 6(3), 120–128.
15. UNWTO. (2022). *Tourism in the post-COVID world: Trends and prospects*. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
